



BUGUNGI KUNDA VOYAGA YETMAGANLAR VA YOSHLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN KIBERJINOYATLAR

Djapparov Flyur Fatxullaevich

Malaka oshirish instituti jismoniy tayyorgarlik sikli o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21023859>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Axborot makonida bolalar va o'smirlarni jinsiy xarakterdagi harakatlarga undash. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa va boshqa jinsiy xarakterdagi harakatlar.

ABSTRACT

Bugungi innovatsion dunyoda yaqqol ko'zga tashlanayotgan zamonaviy o'zgarishlar, ham global, ham milliy darajada, ko'p jihatdan yoshlar va voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning mohiyatini anglashga bog'liq. zamonaviy dunyoda alohida rol o'ynashga da'vogar bo'lgan axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari tomonidan yoshlar va voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklariga oid konseptual g'oyalarning buzilishi tobora ko'proq kuzatilmoqda. internet tarmoqlaridan foydalanib yoshlar va voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiberjinoyatchilik bilan bog'liq muammolar bunga yorqin misol bo'ladi va shu bois, so'nggi o'n yillikda unga qarshi kurash masalalari tobora ko'proq mutaxassislar e'tiborini jalb etmoqda.

Bugungi innovatsion dunyoda yaqqol ko'zga tashlanayotgan zamonaviy o'zgarishlar, ham global, ham milliy darajada, ko'p jihatdan yoshlar va voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning mohiyatini anglashga bog'liq. zamonaviy dunyoda alohida rol o'ynashga da'vogar bo'lgan axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari tomonidan yoshlar va voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklariga oid konseptual g'oyalarning buzilishi tobora ko'proq kuzatilmoqda. internet tarmoqlaridan foydalanib yoshlar va voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiberjinoyatchilik bilan bog'liq muammolar bunga yorqin misol bo'ladi va shu bois, so'nggi o'n yillikda unga qarshi kurash masalalari tobora ko'proq mutaxassislar e'tiborini jalb etmoqda. innovatsion hayotimizning turli sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bu mavzu eng dolzarb amaliy muammolardan biriga aylandi va mamlakatda yoshlar va voyaga etmaganlarning huquq tartiboti hamda internet xavfsizligi masalalari bilan shug'ullanuvchi olimlar va amaliyotchilarni tashvishga solmoqda. bunday jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etish bir qator o'ziga xos xususiyatlar tufayli mushkul, masalan, jinoyatchi va jabrlanuvchining bir mamlakatda yashamasligi, ular bir birlarini faqat virtual olamdagina bilishi va shu kabi boshqa sabablar. axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib yoshlar va yoshlar va voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiberjinoyatchilik - bu internet tarmog'i orqali yoshlar va voyaga etmaganlarning huquqlari, erkinliklari, hayoti va sog'lig'iga tajovuz qiluvchi, jinoyat quroli sifatida namoyon bo'luvchi elektron ma'lumotlardan

iborat virtual vositalar majmuidir. shu munosabat bilan har bir bola va o'smirda "yoshlar va voyaga etmaganning axborot immuniteti"ni shakllantirish zarur¹. Bu yoshlar va voyage etmagan shaxslarning axborot kibernuhoitining salbiy ta'sirini bartaraf etish qobiliyati bo'lib, axborot tahdidlarini aniqlash, ularning xavflilik darajasini baholash va ularga qarshi samarali kurashish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. transmilliy uyushgan jinoiy guruhlar odatda, bolalar va o'smirlarga nisbatan kibernuhoitdan foydalangan holda, internet orqali quyidagi xalqaro xususiyatga ega kiberjinoiyatlarni sodir etadi: – axborot-telekommunikatsiya makonidan foydalangan holda bolalar savdosi. – internetdan foydalanib voyaga etmaganlarni jinsiy sanoatga jalb qilish. – internetdan foydalanib voyaga etmaganlarni jinsiy va boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilish hamda noqonuniy farzandlikka olish uchun noqonuniy emigratsiya. – Kibermakonda voyaga etmaganlar va bolalar pornografiyasi savdosi. – Internet tarmog'ida bolalar va o'smirlarga nisbatan kiberfiribgarlik. – Tarmoqdan foydalanib bolalar va o'smirlardan foto yoki video material, shuningdek pul mablag'larini talab qilish maqsadida kibertovlamachilik va shantaj. Axborot makonida bolalar va o'smirlarni jinsiy xarakterdagi harakatlarga undash. – O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa va boshqa jinsiy xarakterdagi harakatlar. – Tarmoqdan foydalanib o'smirlarga nisbatan buzuq xatti-harakatlar (pedofiliya). – Axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib kiberqo'rqitish, kiberta'qib, gruming, kiberbulling (kiberzo'ravorlik). – Global tarmoq orqali voyaga etmaganlarni terrorchilar tomonidan yollash. – Internetdan foydalanib voyaga etmagan shaxsni jinoiyat sodir etishga jalb qilish. – Internetdan foydalanib voyaga etmaganlarni o'z joniga qasd qilishga undash "bullitsid". – Axborot tarmoqlaridan foydalanib giyohvand moddalar savdosi. – Global makondan foydalanib "LGBT" jinsiy ozchilik vakillari tomonidan voyaga etmaganlarga nisbatan kiberjinoiyatchilik. Kompyuter jinoiyatlarining ushbu barcha turlari transmilliy xususiyatga ega bo'lib, quyidagi tendensiyalar bilan ajralib turadi: Internet tarmog'i orqali nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa har qanday mamlakatda turib jinoiyatchilar tomonidan o'smirlar va bolalarga nisbatan internet jinoiyatlari sodir etiladi; – Aksariyat transmilliy jinoiy guruhlarining jinoiy faoliyati chet eldan boshqarilishi; – Bu jinoiyatlar o'ta yopiq xarakterga ega, ular bilan aloqa o'rnatish qiyin, odatda bir turdagi jinoiy faoliyat bilan cheklanadi; – Kiberjinoiyatlarni sodir etishda yuqori darajada jihozlanganligi, texnologik imkoniyatlari va harakatchanligi bilan ajralib turadi. Jinoiy guruhning har bir a'zosi ma'lum bir joyda yashashni va o'z vazifasini bajarishni afzal ko'radi, O'zbekiston hududida iloji boricha kamroq harakatlanishga intiladi; – Kiberjinoiyat sodir etuvchi guruh a'zolarining o'zaro konspiratsiya jarayoni etarli darajada mukammallikka ega bo'lishi, ya'ni ushbu guruh a'zolari turli "NIK"lar bilan niqoblangan yuqori turuvchi rahbari yoki jinoiy sherigidan topshiriqlar olib uni ijroga qaratishi hamda ushbu ijro jarayonida faqatgina o'ziga belgilangan vazifani amalga oshirib, ishning boshqa jihatlari haqida umuman ma'lumotlarga ega bo'lmasligi va boshq².

¹ Mirsalixova G.A. "Voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiberjinoiyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi va xususiyatlari" //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – №. 35. – s. 49-55.

² Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашиш самарадорлигига эришишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Спешиал Иссуе. – С. 35-40.

Voyaga etmaganlarga xavfsizligini ta'minlashda va ularni turli kiber tajovuzlardan himoya qilishda hamda ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashda shu sohaga mas'ul bo'lgan HMQO kuchlarni birlashtirish, shuningdek xorijiy davlatlarning ombudsmanlari (inson va bola huquqlari bo'yicha vakillar) bilan o'zaro hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, internet orqali voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayoniga konseptual yondashishda, jinoiy-huquqiy choralarni to'g'ri ishlab chiqishda va ushbu turdagi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning tashkiliy-taktik usullarini yaratishda tezkor-qidiruv tavsifi tushunchasini ko'rib chiqish o'ziga xos ahamiyatga ega. Tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi nuqtai nazaridan, internet makonida voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv va kiberqidiruv uslublarni ishlab chiqishda asosiy element sifatida "ayrim turdagi jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifining o'ziga xos xususiyatlari" namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda tezkor-qidiruv tavsifining tuzilishi va mazmuni turlicha talqin qilingan. Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etilgan ko'plab jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jinoyat sub'ektidan (boshqa mamlakatlar fuqarolari) to' jinoiy tajovuz ob'ektigacha, avvalo global tarmoqda voyaga etmaganlarga qarshi kiberjinoyatlarni sodir etish yoki ularga tayyorgarlik ko'rish qonuniyat va mexanizmlariga e'tibor qaratish lozim. Bunda tezkor-qidiruv, axborot, telekommunikatsiya, kiber-texnik va kiber qidiruv tavsiflarining mazmunini aniqlashda umum e'tirof etilgan elementlardan (jinoiy-huquqiy, kriminalistik va kriminologik tavsiflar) tashqari, qidiruv belgilari sifatida "tezkor-qidiruv telekommunikatsiya, axborot va kiber-qidiruv tavsiflarining fakultativ tarkibiy qismlari"ni ajratib ko'rsatish zarur. Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan kiberjinoyatlarning ushbu tavsiflari mazmuniga kiruvchi fakultativ belgilarni (elementlarni) shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: kiberjinoyatchilar shaxsiyatining shakllanishiga oid ichki belgilar va ularning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi belgilar. Kiberjinoyatchining shaxsini shakllantirishga bevosita aloqador bo'lgan ichki belgilarga quyidagilar kiradi: – Internet tarmog'idagi jinoiy faoliyat motivlari; – kiberjinoyatlarni sodir etishdagi rolini belgilaydigan jamiyatdagi o'rni (tashkilotchi, bajaruvchi, yordamchi va hokazo); – veb-saytlar, domenlar, kontentlar va boshqalarning ichki tuzilmasi yopiqlik darajasi; – global tarmoqqa psixologik qaramlik, ya'ni xulq-atvorning tarmoqdagi noan'anaviy muloqot shakllariga bog'liqligi; kasbiy ixtisoslashuv yoki uning yo'qligi; – o'smirlarning kibermakon nanotexnologiyalariga moslashish darajasi; – Internet tarmog'i axborot makonidagi xatti-harakatlarning jinoiy yo'nalishi va boshqalar. Internet tarmog'ida kiberjinoyatchilarning voyaga etmaganlarga nisbatan xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tashqi belgilarga quyidagilar kiradi: – dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan uyushgan jinoiy guruhlariga doimiy qaramlik, bu o'smirlarga nisbatan taqiqlangan kontentni namoyish etish va muntazam hamkorlikdagi muloqot shaklida namoyon bo'ladi; – bolalarga nisbatan g'ayriqonuniy buzuvchi faoliyat bilan shug'ullanish; o'smirlarga nisbatan porno-sanoatni rivojlantirish uchun chet eldan moliyalashtirish; – Internet tarmog'ida va oflayn tarzda jinsiy mahsulotlarni o'zaro almashish maqsadida transmilliy uyushgan tashkilotlarning ta'siri va boshqalar. Shu sababli, Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan kiberjinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifini quyidagicha ko'rib chiqish lozim: jinoyat-huquqiy, kriminalistik, kriminologik, axborot,

telekommunikatsiya, kiberqidiruv, kiber-viktimologik va kiberologik belgilar majmuasi bo'lib, ular axborot makonida kiberjinoyatchilar tomonidan bolalar va o'smirlarga nisbatan sodir etilishi mumkin. Bundan tashqari, kibermakonda jinoyatchining shaxsini shakllantirishga oid va uning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan qo'shimcha belgilar ham mavjud. Ushbu belgilar axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan kiberjinoyatlarni aniqlash, oldini olish, to'xtatish va fosh etishda tezkor qidiruv hamda kiberqidiruv imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Voyaga etmaganlarga nisbatan kiber-qidiruv tadbirlari - bu Internet tarmog'idan kompyuter ma'lumotlarini aniqlash va olishdir. Bunda axborot telekommunikatsiya makonini tushunishning maxsus ko'nikmalari, bilimlari va usullaridan foydalaniladi. Bu usullar voyaga etmaganlarga, shuningdek ularning hayotiga tajovuz qiluvchi shaxslarga va jinoyatga oid ma'lumotlarni izlashning o'ziga xos vositasi hisoblanadi. Olingan Internet ma'lumotlari keyinchalik tahlil qilinadi hamda tezkor maqsadlarda isbotlash jarayonida qo'llaniladi. Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etilgan kiberjinoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bunday jinoyatlar ko'p epizodli xususiyatga ega bo'lishi va davomli, takroriy jinoyat yoki jinoyatlar majmuasi belgilariga mos kelishi mumkin. Davomli jinoyatning asosiy belgilari Internet tarmog'ida voyaga 4 etmaganlarga nisbatan axloqsiz xatti-harakatlarning umumiy maqsadiga yo'naltirilgan va aybdorning yagona niyati bilan qamrab olingan bir nechta o'xshash harakatlarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Internet tarmog'i orqali voyaga etmaganlarga nisbatan jinoiy faoliyatning davomiyligi virtual makondagi jinoyatchilikning ustuvor jinoiy-huquqiy belgilari hisoblanadi. Bu esa katta ijtimoiy xavf tug'diradi va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan uni aniqlash, oldini olish va fosh etish bo'yicha qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab etadi. Axborot makonida voyaga etmaganlarga nisbatan jinoyatchilikni tavsiflovchi muhim jinoiy-huquqiy belgi guruhli va takroriy jinoyatchilikdir. Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga qarshi kiberjinoyat sodir etuvchilarning tobora o'sib borayotgan mahorati va axborot makonidagi yuqori darajadagi maxfiylikni hisobga olgan holda, kiberjinoyatchilarni huquqni muhofaza qilish organlarining tezkor bo'linmalari uchun aniqlash qiyin ekanligi va bu "ularning yuqori yashirinligiga sabab bo'lishi" to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. So'nggi o'n yil ichida Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning o'zgarish dinamikasi doimiy ravishda o'zgarib bormoqda va bu Internet-tarbiyaviy hamda axborot-texnologik xususiyatga ega bo'lgan bir qator sabablar bilan bog'liq. Masalan: nazorat qilinmaydigan virtual tarmoq, yuqori darajadagi ishsizlik, aholining past turmush darajasi, o'smirlar ustidan tegishli nazoratning yo'qligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ta'lim muassasalari, shuningdek umuman bu boradagi ma'sul idoralarning Internet tarmog'ida voyaga etmaganlarga nisbatan jinoyatlarga qarshi kurashish usullarini takomillashtirishdagi jiddiy kamchiliklari, global tarmoqda voyaga etmaganlarga qarshi kiberjinoyatchilikni aniqlashda aniq harakatlar ketma-ketligining mavjud emasligi, ota-onalar tomonidan bolaning Internetda o'tkazayotgan vaqti ustidan nazoratning yo'qligi va boshqalar. Axborot-telekommunikatsiya makonida voyaga etmaganlarga nisbatan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning transmilliy va xalqaro jihati faollashdi. Buning natijasida jinoiy xorijiy tuzilmalar faoliyatining yo'nalishi o'zgardi, ular qonuniy tarmoqqa kirib, jahon jinoiy kibermuhitida o'z o'rnini egalladi. Shuningdek, jinsiy turizm, pedofiliya, bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish, kiberhimoya, kiberfiribgarlik, kibertovlamachilik kabi kiberjinoyatlarga bo'lgan talab tufayli mintaqalararo va xalqaro aloqalar kengaydi. Global kompyuter

tarmoqlarida voyaga etmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyati uchun xos bo'lgan quyidagi tezkor qidiruv xususiyatlarini qayd etish mumkin, bular: tarmoq axborot makonining o'ziga xos jihatlari (rivojlangan anonimlik mexanizmlari, infratuzilmaning murakkabligi va hokazo) tufayli jinoyatning yuqori darajada yashirin sodir etilishi; – tarmoq jinoyatlarining transchegaraviy xususiyati, bunda jinoyatchi, jinoiy tajovuz ob'ekti va jabrlanuvchi turli davlatlar hududida joylashgan bo'lishi mumkinligi; – jinoyatchilarning maxsus tayyorgarligi, jinoiy faoliyatning intellektual xususiyatga egaligi; – jinoyatlarni sodir etish usullari va qo'llaniladigan maxsus vositalarning g'ayrioddiy, murakkab, xilma-xil va tez-tez yangilanib turishi; – jinoyatni avtomatlashtirilgan tarzda bir vaqtning o'zida bir nechta joyda sodir etish imkoniyatining mavjudligi; – ko'plab alohida kompyuterlarning nisbatan zaif resurslarini jinoyat sodir etishning kuchli qurolga aylantirish imkoniyati; – jabrlanuvchilar ko'p bo'lgan hollarda jinoiy harakatlarning ko'p epizodli xususiyatga egaligi; – o'smirlarning jinoiy ta'sirga uchraganliklaridan bexabar qolishlari; – jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasida jismoniy aloqa bo'lmagan sharoitda jinoiy harakatlarning masofadan turib amalga oshirilishi; – ushbu turdagi jinoyatlarni an'anaviy vositalar bilan oldini olish va to'xtatishning imkonsizligi. Yoshlar va voyaga etmaganlarga qarshi kiberjinoyatchilikka bir qator kriminologik omillar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular jumlasiga transmilliy jinoiy guruhlarining jinoyatkorona faoliyati faollashuvi, xalqaro tashkilotlarning ishi, internet tarmog'ida Yoshlar va voyaga etmaganlarga nisbatan transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamjamiyatning kelishmovchiligi, hamda jinoiy tuzilmalarning global tarmoqqa jalb etilishi kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda "O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" PF-27 son farmonining
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2020. – 25 yanvar.
3. Tashtemirov A. A. Axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligiga erishishning huquqiy va tashkiliy jihatlari //Evraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh nauk. – 2022. – T. 2. – №. 12 Special Issue. – S. 35-40.
4. Tashtemirov A. A., Kalauov S. A. Yo'l harakati xavfsizligi rivojlanish konsepsiyasining istiqbollari va kiberxavfsizligini ta'minlash zarurati
2. barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 8. – S. 245-250.
5. Tashtemirov A. A. i dr. Ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish chora-tadbirlari //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – T. 2. – №. 21. – S. 24-31.
6. Tashtemirov A. A. Yullarda xarakatlanishni tartibga solishning xukukiy jixatlari va bu borada texnologiyaning axamiyati //siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – S. 111-115.
7. Таштемиров А. А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Спеиал Иссуе. – С. 42-48.

8. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
9. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //О'збекистонда фанлараро инноватсиялар ва илмий тадқиқотлар журнали. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
10. Mirsalixova G.A. "Voyaga etmaganlarga nisbatan sodir etiladigan kiberjinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi va xususiyatlari" //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – №. 35. – s. 49-55.

